



Interfaol ta'limiy o'yinlar vositasida bolalarni og'zaki nutqni rivojlantirish

Turan Xalqaro Universiteti

Gumanitar fanlar va Pedagogika

fakulteti Maktabgacha ta'lim

yo'nalishi 4- kurs talabalari

Toshpulatova Oydinaxon Rustam qizi

Shermatova Shaxnoza Shavkat qizi

Annotatsiya: maktabgacha ta'lim sohasida ta'lim olayotgan maktabgacha yoshdagi bolajonlarda interfaol texnologiya va metodlarni qo'llash orqali ularning nutqlarini o'stirish haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, ilg'or xorijiy tajribani o'rganish orqali yurtimizda qo'llash mumkin bo'lgan metodlar yoritildi.

Kalit so'zlar: interfaol, texnologiya, metodlar, maktabgacha ta'lim, bolalar nutqi.

Аннотация: В данной статье представлена информация о развитии речи детей дошкольного возраста, обучающихся в сфере дошкольного образования, с использованием интерактивных технологий и методик. Также были освещены методы, которые могут быть применены в нашей стране путем изучения передового зарубежного опыта.

Ключевые слова: интерактивная, технология, методы, дошкольное образование, речь детей.

Annotation: the preschool child who is studying in the field of preschool education is given information about their speech development using interactive technologies and techniques. Also, the methods that can be applied in our country through the study of advanced foreign experience have been covered.

Keywords: interactive, technology, techniques, preschool, children's speech.

Kirish. Zamonaviy ta'limni tashkil etishda qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmasdan qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni tarbiyalanuvchilarga yetkazib berish, ularda



ma'lumot faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarini hosil qilish, shuningdek, tarbiyalanuvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash tarbiyachidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Interfaol metodlarni qo'llashdan maqsad:

- pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish;
- tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish:
- tarbiyachilar tomonidan mashg'ulotlarni puxta egallanishini ta'minlash:
- tarbiyalanuvchilarda mustaqil erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish:
- tarbiyalanuvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur sharoitlarni yaratish.

Asosiy qism. Interfaol metodlardan majburan foydalanish mumkin emas. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo'llanilayotgan interfaol metodlardan foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivijlantirish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda tahsil oluvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar- interfaol metodlar nomi bilan yuritiladi. Interfaol metod texnologiyasining mohiyati tahsil oluvchilarning ustuvorligiga tayanib va mashg'ulotda erkin bahs- munozara sharoitini yaxshilashdan iboratdir. Bu metodga ko'ra mashg'ulotlar bir necha bosqichga bo'linadi.

1. Chaqiriq bosqichi. Bu bosqichda tarbiyalanuvchilarni faollashtirish, shuningdek mazmun mohiyatiga kirib borish uni anglab yetish jarayoniga tayyorlash maqsadli ko'zda tutiladi.

2. Fikriy hujum. Bu usul mashg'ulotning boshlanishida yoki istalgan joyida qollanishi mumkin. Bu bosqichda muammo tarbiyalanuvchilarga aqliy hujum yo'li bilan beriladi va ularning fikrlari orqali olib boriladi.



3. Anglash bosqichi. Mashg'ulotga oid xulosaviy fikrlar eshitiladi va tarbiyachi tomonidan yangi fikrlar bilan to'ldiriladi.

4. Fikrlash bosqichi. Mashg'ulot yuzasidan o'zlashtirilgan bilim va tushunchalarni qisqa og'zaki ravishda bayon etadilar. Guruhlarga bo'linadi bolajonlar har bir guruh o'z fikrini aytadi va boshqalarga ma'lum qiladi. Guruhlar bilan ishlash faqat fikrlash bosqichida emas, balki birinchi bosqichdan boshlab yo'lga qo'yish mumkin.

Hozirgi paytda ta'lim tizimida, shu jumladan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ta'lim-tarbiya jarayonida ta'limga oid o'yinlar va interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish alohida o'rin tutmoqda. Psixolog N.Boymurodovning ta'kidlashicha, materialni muvaffaqiyatli o'zlashtirishda, avvalo diqqat kuchi belgilanadi, ba'zi tarbiyalanuvchilarni o'rtoqlaridan orqada qolib ketishlari, ularning aql-idrok yoki xotiralarini zaifligidan emas, balki diqqatlarining bo'shligidan kelib chiqadi. Interfaol o'yinlar esa, barcha bolalarni diqqatlarini o'zlariga jalb qiladilar. N.Boymurodov yosh bolalarning idroki to'g'risida quyidagilarni yozgan: "Maktabgacha yoshdagi bolaning hayotida o'yin hukmronlik qiladi va o'yin tufayli bolaning idroki hamrivojlanadi, chunki bola o'yinga aloqasi bo'lgan buyumga ko'proq e'tibor berib qaraydi va o'zo'yinida atrofdagi hayotni aks ettiradi. O'yin, rasm chizish va shunga o'xshash mashg'ulotlar tufayli bolada kuzata bilish qobiliyati ham rivojlanadi"

Ta'limiy o'yinlarini samaradorligini oshirish uchun uning texnologiyasi:

- o'yinni ta'lim maqsadlariga mos bo'lishi;
- imitatsion-rolli o'yinni amaliy pedagogik (psixologik) vaziyatga ta'sir etishi;
- o'yin qatnashchilarining o'yin mazmuniga mos keladigan maxsus psixologik tayyorgarligi;
- o'yinda ijodiy elementlaridan foydalanish imkoniyatlari;

tarbiyachi (psixolog) nafaqat rahbar sifatida, balki o'yin jarayonida "to'g'rilovchi" va maslahatchi sifatida ham ishtirok etish kabi talablarga tayyor bo'lishi kerak. Ixtiyoriy ta'lim berish o'yini bir necha bosqichdan iborat bo'lishi mumkin:



- a) o‘yin muhitini yaratish - bu bosqichda o‘yinining mazmuni va asosiy vazifasi aniqlanadi, uning qatnashchilarini psixologik tayyorgarligi amalga oshiriladi;
- b) o‘yin jarayonini tashkil etish - bu bosqichda qatnashchilarga o‘yin qoida va shartlari tushuntiriladi va ular orasida rollarni taqsimlash amalga oshiriladi.
- c) o‘yinni o‘tkazish - bunda qo‘yilgan maqsad hal qilinadi;
- d) yakun yasash - bu bosqichda qatnashchilarning o‘zlari ham, maxsus ekspertlar (psixolog, pedagog) tomonidan ham o‘yin borishi va natijalari tahlil etiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, ta’limiy o‘yinlarda faqat oddiy o‘yin uslubi foydalanilmaydi. O‘yin jarayonida guruh, individual ish, birgalikda muhokama, test va so‘rov o‘tkazish, rolli vaziyat yaratishlardan foydalanish mumkin. Ta’lim berish jarayonida o‘yinyordamchi element sifatida qisman nazariy materialga qo‘shimcha sifatida foydalaniladi.

Xulosa. ta’limga oid o‘yinlarining ta’lim va psixologiyadagi o‘rni nihoyatda ahamiyatlidir. Pedagogikada ular tarbiyalanuvchilarning faolligini, tashabbusini, mustaqilligini rivojlantirishga asoslangan rivojlantiruvchi ta’limning ajralmas tarkibiy qismidan iboratdir. Ishchanlik o‘yinlarining ahamiyati to‘g‘risida pedagog-psixolog M.I. Maxmutov, “ushbu texnologiyaning ahamiyati bolalarning bilish, ijtimoiy va kasbiy faolligini rivojlantirishdan, ularda ishchanlik o‘yinlarida qatnashish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat” deb ta’kidlagan edi. Ta’limga oid o‘yinlari psixologik ahamiyat kasb etadi va kasbiy va shaxsiy sifatlarini rivojlanishlariga imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Babayeva D. R. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent, 2018. – 334 b.
2. Nishonova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. – T.: “O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi”, 2006. — B. 68.
3. Qodirova F. R., Toshpo‘latova Sh.Q., Qayumova N. M., A‘zamova M. N. Maktabgacha pedagogika. – T.: “Tafakkur”, 2019. – B. 107.



4. Zokirova, S.M. (2016). About the congruent phenomenon in the contrastive linguistics. Sciences of Europe , (8–2 (8)).
5. Зокирова С. М. Контрастный анализ синтаксических слойных установок. Вестник Наманганского государственного университета: Vol , 1 (8), 48.